



JAZOIR AYOL ADIBALARI IJODI: OSIYO JABBOR VA FODILA FARUQ FENOMENI

O'tkirova Zahro

Filologiya va tillarni o'qitish: arab tili ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqola Jazoir adabiyotidagi ayol ijodkorlarning zamonaviy taraqqiyotdagi o'rnini va ularning ijtimoiy-siyosiy muhit bilan munosabatini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqot doirasida ikki mashhur Jazoir ayol yozuvchi — Assiya Jebar va Fodila Faruqning hayoti, ijodi va asarlaridagi asosiy mavzular tahlil qilinadi. Maqolada bu ikki adibning ijodiy yo'nalishlari, mavzulari va jamiyat bilan munosabatlari solishtiriladi, shuningdek, ularning arab va Jazoir madaniyati, ayol obrazlari va feminizmga qo'shgan hissassi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari Jazoir ayol adabiyotining zamonaviy o'rnini va uning xalqaro adabiyot kontekstidagi ahamiyatini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Jazoir, Assiya Jebar, Fodila Faruq, Arab adabiyoti, Feminizm, Gender munosabatlar, asarlar, "Qora o'n yillik", Fransuz adabiyoti, tahlil, adabiyot, nashr.

XX asr arab adabiyoti taraqqiyotida Jazoir ayol adibalari ijodi alohida ilmiy va madaniy ahamiyat kasb etadi. Mustamlakachilik, ozodlik kurashi, milliy o'zlikni anglash, fuqarolik urushi va ijtimoiy transformatsiyalar fonida shakllangan Jazoir adabiy muhiti ayol yozuvchilar uchun nafaqat ijodiy maydon, balki ijtimoiy qarshilik va o'zligini ifodalash vositasiga aylandi. Ayniqsa, Osiyo Jabbor (Assia Djébar) va Fodila Faruq (Fāḍila al-Fārūq) kabi adibalar Jazoir ayol adabiyotini xalqaro ilmiy muhokama darajasiga olib chiqdi.



Ularning ijodi orqali Jazoir ayolining tarixiy xotirasi, shaxsiy fojialari, gender tengsizlik muammolari hamda milliy va diniy identitet masalalari badiiy-estetik jihatdan yoritildi. Ushbu maqolada Osiyo Jabbor va Fodila Faruq ijodi qiyosiy-tahliliy yondashuv asosida o'rganilib, ularning Jazoir ayol adabiy tafakkurini shakllantirishdagi o'rni ochib beriladi.

Zamonaviy arab adabiyotshunosligida ayol yozuvchilar masalasi faqat gender nuqtayi nazaridan emas, balki postkolonial, madaniy va sivilizatsion jarayonlar bilan bog'liq holda tadqiq etilmoqda. Jazoir adabiy makoni bu borada o'ziga xos xususiyatlarga ega. Chunki Jazoir XIX–XX asrlarda fransuz mustamlakachiligi ostida bo'lgan, natijada til, madaniyat va adabiyot masalalari keskin ziddiyatli shaklda rivojlangan.

Osiyo Jabbor fransuz tilida ijod qilgan bo'lsa, Fodila Faruq arab tilida yozgan. Bu holat ularning asarlarida ifodalangan ayol obrazlari, diniy-ijtimoiy qarashlar va estetik yondashuvlarda muhim tafovutlarni yuzaga keltirgan. Shu bois ushbu ikki adiba ijodini qiyosiy o'rganish Jazoir ayol adabiyotining ichki dinamikasini anglashda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Osiyo Jabbor (asl ismi — Fatima-Zohra Imalayen, 1936–2015) zamonaviy Jazoir adabiyotining eng nufuzli vakillaridan biri bo'lib, ayol yozuvchi sifatida nafaqat milliy, balki xalqaro adabiy maydonda tan olingan ijodkordir. U Jazoirning Sherchel shahrida tug'ilib, fransuz mustamlakachiligi hukmron bo'lgan muhitda ta'lim olgan. Osiyo Jabbor Parijdagi École Normale Supérieure oliy o'quv yurtida tahsil olib, bu dargohda o'qigan ilk musulmon ayollardan biri sifatida tarixga kirdi¹.

Adibaning shaxsiy hayoti va intellektual shakllanishi mustamlakachilik bosimi, madaniy ikkilanish va ayol erkinligi masalalari bilan chambarchas bog'liq bo'ldi. Aynan shu omillar uning badiiy dunyoqarashi va estetik konsepsiyasining shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Osiyo Jabbor ijodida fransuz tilidan

¹ <https://www.sgu.ru/news/2025/v-kruge-chteniya-alzhirskaya-pisatelnica-assiya-dzhebar-1936-2015>



foydalanish oddiy lingvistik tanlov emas, balki murakkab tarixiy va mafkuraviy qaror sifatida namoyon bo‘ladi.

Osiyo Jabbor 1936-yilda fransuz tili o‘qituvchisi oilasida tug‘ilgan. 1980-yildan boshlab Fransiyada yashagan. U Belgiya Qirollik fransuz tili va adabiyoti akademiyasining a‘zosi bo‘lgan².

Adibaning asarlarining aksariyati feministik nuqtayi nazardan ayollarning ijtimoiy va ma‘naviy muammolarini yoritishga bag‘ishlangan. U quyidagi romanlar muallifidir: “Chanqoqlik” (1957), “Jazoir ayollari o‘z uylarining ichki qismida” (1980), “Muhabbat va fantaziya” (1985), “Madina shahridan yiroqda” (1991), “Ulkan qamoqxona” (1995).

1969-yilda Osiyo Jabbor Uvahid Karn bilan hammualliflikda yozilgan “Qizil shafaq” nomli drama asari nashr etiladi. Hajman katta bo‘lgan ushbu pyesada 40 ga yaqin obraz orqali Jazoir mustaqillik urushi davridagi jamiyatning deyarli barcha qatlamlari tasvirlangan. To‘rt asosiy qahramondan yetakchi rol Shoir obraziga berilgan bo‘lib, u viloyat shaharchasidagi maydonda mandolina chalib, xalq orasida dostonlar aytib yuruvchi ko‘zi ojiz rivoyatchi sifatida gavdalanadi. Shoir mumtoz she‘rlarni o‘qir ekan, maydonda o‘q ovozlari eshitadi va taxminiy xoinni otib o‘ldirgan yigitning yashirinishiga yordam beradi. Yigit tog‘larga qochib ketadi, Shoir esa o‘zi qurol ko‘tarib, patrul askarlaridan birini o‘ldiradi va qiynoqlardan so‘ng qatl etiladi³.

Keng qamrovli epik roman — “Muhabbat va fantaziya” (1985; XX asrning 12 ta eng yaxshi Afrika kitobi ro‘yxatiga kiritilgan) asarida Osiyo Jabbor ikki parallel zamoniy qatlamni uyg‘unlashtiradi: XIX asrning ikkinchi choragida Fransiyaning Jazoirni bosib olishi haqidagi tarixiy xronika va 1950-yillardagi Jazoir ozodlik urushi davrida yashayotgan bosh qahramon ayolning shaxsiy hayot yo‘li.

² "Assia Djebbar", Voices from the Gaps, University of Minnesota. Дата обращения: 11 ноября 2020. Архивировано 12 ноября 2020 года.

³ Прожогина С. В. Литература на французском языке // История национальных литератур стран Магриба. В 3 кн. Кн.1. Литература Алжира.. — М.: Наука-Вост. лит., 1993.



Birinchi urushdagi dahshatli manzaralar — butun qabilalarning qirib tashlanishi, onalar tomonidan go‘daklarning o‘ldirilishi kabi vahshiy holatlar — ikkinchi urush, ya’ni jazoirliklarning o‘z yurtini qayta “ozod etish” jarayonidagi shafqatsiz sahnalar bilan uyg‘unlashadi.

Roman bosh qahramonining o‘z shaxsiy va milliy identiteti haqida ikkilanayotgan ovozi bilan bir qatorda, asarda ko‘plab jazoirlik ayollarning ovozlari — “sukut zulmatini yorib chiqqan, so‘zsiz qullar xori” ham yangraydi. Vaqt va makon qatlamlarini uyg‘unlashtirgan holda, Jebar Jazoir Yangi davrga o‘tish jarayonida nihoyatda og‘ir narx to‘lagan degan xulosaga keladi. Bu davr erkinlikning yangicha talqini, milliy o‘zlikni anglash va har qanday qullik — tashqi mustamlakachilik hamda ichki an’anaviy tazyiqlarga barham berish istagi bilan kechgan. Rossiyalik adabiyotshunos Svetlana Projoginaning ta’kidlashicha, “har ikkala rivoyat inson, xalq, millat va mamlakatning uyg‘onishi va yetilishi, asirlik va noshukurlikdan ruhiy yorilish sari, o‘z ‘men’i, o‘z ovozi va o‘z hayotiga bo‘lgan huquqini anglash sari yo‘nalgan umumiy mavzuga bag‘ishlangan”⁴.

“Oran, o‘lik til” (1997) nomli novellalar turkumida Osiyo Jabbor Jazoir mustaqillikka erishganidan keyingi yillarga murojaat qilib, islomiy fundamentalistlar tomonidan ayollarning har qanday emansipatsiya alomatlari qanday qilib shafqatsizlarcha bostirilganini ko‘rsatadi. Yevropa ta’limini olgan yoki hatto erkaklar bilan kafelarda uchrashishga jur’at etgan ayollar fundamentalistik “terrop” yillarida ayniqsa ko‘p qurbon bo‘lgan.

“Dafn etilmagan” (2002) romanining qahramonlari fransuzlar tomonidan o‘ldirilgan partizan ayol hamda uning qizi bo‘lib, u ham keyinchalik Ozodlik uchun kurashni davom ettirishga qaror qiladi⁵.

Osiyo Jabbor 2015-yilda Parij shahrida 78 yoshida vafot etgan⁶.

⁴ Calle-Gruber M. Assia Djébar, ou, La résistance de l’écriture: regards d’un écrivain d’Algérie. Paris: Maisonneuve et Larose, 2001

⁵ Schuchardt B. Schreiben auf der Grenze: postkoloniale Geschichtsbilder bei Assia Djébar. Köln: Böhlau, 2006

⁶ Woodhull, W. Transfigurations of the Maghreb. Minneapolis: University of Minnesota Press, 1993.



G'arb va arab adabiyotshunoslari Osiyo Jabbor ijodini yuqori baholagan. 2005-yilda u Fransiya akademiyasiga a'zo etib saylangan ilk musulmon ayol bo'ldi. Bu holat uning adabiy va intellektual nufuzini tasdiqlaydi.

Mildred Mortimer Osiyo Jabbor ijodini "ayol xotirasi asosida qayta yozilgan tarix" deb baholaydi. Winifred Woodhull esa adibaning til va madaniyat masalasidagi yondashuvini postkolonial adabiyotning yorqin namunasi sifatida ta'riflaydi.

Fodila Faruq (فاضلة الفاروق) zamonaviy Jazoir ayol adabiyotining muhim vakillaridan biri bo'lib, uning ijodi asosan XX asr oxiri va XXI asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy silkinishlar bilan uzviy bog'liqdir. Adiba Jazoirda tug'ilib, arab tilida ijod qilgan. Uning shakllanish davri Jazoir jamiyatida chuqur ijtimoiy ziddiyatlar, fuqarolik urushi va diniy-siyosiy radikallashuv jarayonlari kuchaygan davrga to'g'ri keladi⁷.

Fodila Faruq ijodi Osiyo Jabbor ijodidan farqli o'laroq, mustamlakachilikdan keyingi emas, balki ichki ijtimoiy muammolarni markazga qo'yadi. Uning asarlarida ayolning jamiyat ichidagi zo'ravonlik, ruhiy ezilish va ijtimoiy cheklovlarga qarshi kurashi asosiy mavzu sifatida namoyon bo'ladi.

Fodila Melkemi Jazoirning Konstantina shahrida voyaga yetgan bo'lib, bolalik yillarida berber tilida so'zlashgan. 1987-yilda bakalavriat (bakkalavriat) darajasini olgach, ikki yil davomida Batna universitetida matematika bo'limi hamda tibbiyot fakultetida tahsil oldi. Shundan so'ng u Konstantina universitetiga qaytib, Adabiyot institutiga o'qishga kirdi va aynan shu yerda o'zining asl kasbiy va ijodiy yo'lini topdi⁸.

Adabiyot sohasi bilan shug'ullanishi bilan birga, Fodila Faruq Konstantina Milliy radiosida "Ijod portlari" (Ports of Creativity) nomli mualliflik dasturini olib bordi. Bosma ommaviy axborot vositalaridagi faoliyatini An-Nasr gazetasida

⁷ <https://www.arabischesbuch.de/index.php?autor=Fadela+Faruq&language=en>

⁸ اقاليم الخوف, Regions of Fear, Riyadh Al Rayes Publishing House, Lebanon, 2010



yordamchi sifatida boshladi. Universitetdagi ikkinchi kursidayoq Konstantinadagi Hayat gazetasida jurnalist sifatida faoliyat yuritib, 1993-yilda oliy ta'limni tamomladi.

1994-yilda u sertifikatini tugatib, yana Konstantina universitetiga qaytdi. 1995-yil oktyabr oyida, Jazoir fuqarolar urushi tugaganidan ko'p o'tmay, Bayrut shahriga ko'chib o'tdi. U yerda taniqli shoir va dramaturg Pol Shaul bilan tanishdi; aynan u Fodila Faruqning adib sifatida shakllanishida muhim ma'naviy va ijodiy tayanch bo'ldi. 1996-yil oxirida Faruq Al-Kifah al-Arabiy gazetasiga ishga qabul qilinib, u yerda bir yil davomida faoliyat olib bordi⁹.

1997-yilda Fodila Faruq Bayrutdagi Al-Farobiy nashriyotida o'z mablag'i hisobidan "O'g'irlangan muhabbat lahzasi" (A Moment of Stolen Love) va "O'smir kayfiyati" (The Mood of a Teenager) nomli asarlarini chop ettirdi. Uning "Ayollik sharmi" (The Feminine Shame) romani esa ikki yil davomida nashr etilmay qoldi, biroq shoir va yozuvchi Imod al-Abdallahning ko'magida Riad Risn nashriyoti tomonidan qabul qilindi.

Mazkur roman arab jamiyatida zo'rlash muammosi va unga oid huquqiy me'yorlar, shuningdek, Jazoirda "Qora o'n yillik" (1990-yillar fuqarolar urushi) davrida zo'ravonlik qurboniga aylangan ayollarning chuqur fojiasini ochib beradi. Asar fransuz va ispan tillariga to'liq tarjima qilingan, ayrim parchalari esa italyan tiliga o'girilgan. "Ayollik sharmi" romani dinlararo totuvlik, erkaklar va ayollar o'rtasida tenglik g'oyalarini ilgari suradi hamda urushning barcha shakllarini qat'iy qoralaydi¹⁰.

Fodila Faruq asosan arab tilida ijod qiladi. 2005-yilda Bayrutdagi Riyod ar-Rayyes nashriyotida "Istakni kashf etish" (The Discovery of Desire) romani, 2010-yilda esa "Qo'rquv hududlari" (Regions of Fear) nomli romani chop etildi. Ushbu

⁹ Feminine Shame, Riyadh Al Rayes Publishing House, Lebanon, 2003. French translation: La honte au féminin, Arab Scientific Publishing House, Lebanon and Al Ikhtilef, Algeria, 2009; Spanish translation: Vergüenza, Vision Libros coédition Alfalfa, 2008

¹⁰ "Centre Culturel Algérien de Paris". Archived from the original on 2015-05-11. Retrieved 2015-05-04.



asarlar yozuvchining zamonaviy arab ayoli ruhiyati, zo‘ravonlik, qo‘rquv va ozodlik muammolarini yoritishdagi yetuk ijodiy bosqichini aks ettiradi¹¹.

Osiyo Jabbor va Fodila Faruq Jazoir ayol adabiyotining ikki turli, biroq bir-birini to‘ldiruvchi badiiy-estetik yo‘nalishini ifodalaydi. Ularning ijodi umumiy ijtimoiy muhitda shakllangan bo‘lsa-da, adabiy qarashlar, til tanlovi va mavzu talqinida sezilarli farqlar mavjud.

Avvalo, til masalasi muhim qiyosiy mezon hisoblanadi. Osiyo Jabbor fransuz tilida ijod qilgan bo‘lib, bu tanlov tarixiy majburiyat va intellektual strategiya natijasidir. U fransuz tilini Jazoir ayolining jim qolgan tarixini global miqyosga olib chiqish vositasiga aylantiradi. Fodila Faruq esa arab tilida ijod qilib, ayol muammolarini jamiyat ichidan turib, milliy va diniy kontekstda ochib beradi. Shu jihatdan Osiyo Jabbor ijodi ko‘proq postkolonial xotira, Fodila Faruq ijodi esa ijtimoiy-travmatik adabiyot sifatida namoyon bo‘ladi.

Har ikki adiba ijodida ayol obrazi markaziy o‘rinni egallaydi. Biroq bu obrazning badiiy talqini turlicha. Osiyo Jabbor asarlarida ayol tarixiy sub’ekt sifatida tasvirlanadi. Ayol — millat xotirasining tashuvchisi, tarixiy haqiqatni qayta tiklovchi shaxsdir. Uning sukunati tarixiy majburlik sifatida talqin qilinadi.

Fodila Faruq asarlarida esa ayol avvalo ijtimoiy zo‘ravonlik qurboni sifatida tasvirlanadi. Biroq bu qurbonlik passivlik emas, balki ichki qarshilik va ruhiy bardoshlik bilan uyg‘unlashgan holda beriladi. Ayolning sukuti bu yerda jamiyatga moslashish emas, balki omon qolish strategiyasidir¹².

Osiyo Jabbor ijodida diniy omil ko‘proq madaniy fon sifatida mavjud bo‘lsa, Fodila Faruq asarlarida u bevosita ijtimoiy munosabatlarni shakllantiruvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Biroq har ikki adiba islomni ayol ozodligiga zid hodisa sifatida emas, balki patriarxal talqinlar natijasida buzib ko‘rsatilgan tizim sifatida talqin qiladi.

¹¹ Badran, M. *Feminism in Islam*. Oxford: Oneworld, 2009.

¹² Mortimer, M. *Assia Djebar: Algerian Novelist*. Charlottesville: University Press of Virginia, 1991.



Bu jihat Jazoir ayol adabiyotining muhim xususiyatini belgilaydi: ayol ozodligi g'oyasi G'arbona modelni ko'r-ko'rona takrorlash orqali emas, balki milliy-diniy muhitni ichki isloh qilish orqali ilgari suriladi.

Osiyo Jabbor va Fodila Faruq ijodi Jazoir ayol adabiyotini mahalliy doiradan chiqarib, mintaqaviy va global adabiy muhokama maydoniga olib chiqdi. Osiyo Jabbor G'arb akademik doiralarida Jazoir ayolining ovozini tanitgan bo'lsa, Fodila Faruq arab dunyosida ayol muammolarini ochiq muhokama qilishga turtki berdi.

Xulosa qilib aytganda, Osiyo Jabbor va Fodila Faruq ijodi Jazoir ayol adabiyotining ikki asosiy qirrasini ifodalaydi. Birinchisi — tarixiy xotira va postkolonial ong, ikkinchisi — ijtimoiy travma va ichki qarshilik. Har ikki yo'nalish bir-birini inkor etmaydi, balki to'ldiradi.

Ularning ijodi Jazoir jamiyatidagi ayol mavqeini badiiy adabiyot orqali qayta ko'rib chiqishga xizmat qildi. Bu esa zamonaviy arab adabiyotida ayolning nafaqat mavzu, balki sub'ekt sifatida shakllanganidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Assia Djebbar", *Voices from the Gaps*, University of Minnesota. Дата обращения: 11 ноября 2020. Архивировано 12 ноября 2020 года.
2. "Centre Culturel Algérien de Paris". Archived from the original on 2015-05-11. Retrieved 2015-05-04.
3. Badran, M. *Feminism in Islam*. Oxford: Oneworld, 2009.
4. Calle-Gruber M. *Assia Djebbar, ou, La résistance de l'écriture: regards d'un écrivain d'Algérie*. Paris: Maisonneuve et Larose, 2001.
5. *Feminine Shame*, Riyadh Al Rayes Publishing House, Lebanon, 2003. French translation: *La honte au féminin*, Arab Scientific Publishing House, Lebanon and Al Ikhtilef, Algeria, 2009; Spanish translation: *Vergüenza*, Vision Libros coédition Alfalfa, 2008.



6. Mortimer, M. Assia Djébar: Algerian Novelist. Charlottesville: University Press of Virginia, 1991.
7. Regions of Fear, Riyadh Al Rayes Publishing House, Lebanon, 2010
8. Schuchardt B. Schreiben auf der Grenze: postkoloniale Geschichtsbilder bei Assia Djébar. Köln: Böhlau, 2006.
9. Woodhull, W. Transfigurations of the Maghreb. Minneapolis: University of Minnesota Press, 1993.
10. Прожогина С. В. Литература на французском языке // История национальных литератур стран Магриба. В 3 кн. Кн.1. Литература Алжира.. — М.: Наука-Вост. лит., 1993.

Internet saytlari:

11. www.sgu.ru
12. www.arabischesbuch.de
13. www.academic.ru